


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60320400 – Kutubxona axborot faoliyati
bakalavriat ta'lim yo'nalishining**

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “___” _____ dagi ___ – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	7
	Bibliografik ma’lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60320400 – Kutubxona axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil kilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60320400 – Kutubxona axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlar) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Kutubxona-axborot faoliyati "Jurnalistika va axborot" ta'lim sohasiga oid ta'lim yo'nalishi bo'lib, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Respublika bolalar kutubxonasi, Respublika ko'zi ojizlar kutubxonasi, Qoraqopog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar axborot-kutubxona markazlari, maktab kutubxonalari, Oliy ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari hamda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va tijorat

tashkilotlarining kutubxonalarida kompleks masalalarni yechish, kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish, sohaga tegishli muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektleri.

Kutubxona-axborot faoliyati "Jurnalistika va axborot" ta'lim sohasiga oid ta'lim yo'nalishi bo'lib, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Respublika bolalar kutubxonasi, Respublika ko'zi ojizlar kutubxonasi, Qoraqopog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar axborot-kutubxona markazlari, maktab kutubxonolari, Oliy ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonolari hamda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va tijorat tashkilotlarining kutubxonalarida kompleks masalalarni yechish, kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish, sohaga tegishli muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va targ'ib etish bilan bog'liq tashkiliy va ijodiy ishlarni tashkillashtirish, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni targ'ib etish, kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari olib boradi.

60320400 – *Kutubxona axborot faoliyati* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlovdan o'tgandan so'ng o'rta va professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab-chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari

60320400 – *Kutubxona axborot faoliyati* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

kutubxona-axborot faoliyatiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganishi;

kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;

mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

kutubxona -axborot faoliyati jarayonlarini boshqarish va boshqaruv qarorini qabul qilish;

axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha normativ- huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va joriy qilish;

axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish;

elektron katalog ma'lumotlar bazasini shakllantirish, axborot-kutubxona faoliyatini raqamlashtirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

aholi o'rtasida mutolaa madaniyatini o'stirish usullarini joriy etish;

aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatish.

Ishlab-chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

kutubxona-axborot faoliyati bo'yicha zamonaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

elektron katalog ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimini boshqarish;

elektron kutubxona yaratish va yuritish.

kutubxona-axborot faoliyati sohasida tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

kutubxona-axborot faoliyatida ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

kutubxona-axborot faoliyati sohasi bo'yicha aholining kitobxonlik va mutolaa madaniyatini ko'tarishga xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

kutubxona-axborot faoliyati sohasi bo'yicha aholiga kitobxonlik xizmat ko'rsatishning texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llay olish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish;

globallashuv jarayonlarida milliy madaniyat va ma'naviyat haqida targ'ibot ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehramuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish, malakalarini egallashi lozim.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

kutubxona tizimlarida katta hajmdagi ma'lumotlardan kerakli axborotlarni qidirishda zamonaviy usullarini qo'llay olish;

kitobxonlarning o'zgaruvchan axborot ehtiyojlarini tahlil qilish;

kutubxonalarda axborot-tahliliy xizmatlarni ko'rsatish texnologiyalarini qo'llay olish;

turli bilim sohalari bo'yich axborot-kutubxona resurslarini tahlil qilish;

ilmiy-ta'limiy resurslarni tahlil qilish, axborot-analitik tizimlar bilan ishlash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

axborot-kutubxona sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash, qidirish va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash, qidirish, uzatish, axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsata olishi;

axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish;
axborot-kutubxona muassasalarining ish jarayonlarini avtomatlashtirish;
axborot-kutubxona tizimlarini loyihalashtirish;
elektron kutubxona yaratish: elektron katalog, to'liq matnli ma'lumotlar bazalarini shakllantirish;

yig'ma elektron katalog yaratish, korporativ axborot-kutubxona tizimlari va tarmoqlari orqali fan va ta'limga tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlash;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish;

axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil qilish va boshqarish;

axborot-kutubxona faoliyati sohasini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;

ilmiy-ta'limiy resurslar va axborot-analitik tizimlarni boshqarish;

o'rta maxsus, kasb-hunar, professional ta'lim tizimida Kutubxona-axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi fanlaridan dars berish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	600	20	1-7
1.01	O'zYT 20014	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DIN 20014	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FAL 20014	Falsafa	120	4	3
1.04	XT 20018	Xorijiy til	240	8	1,2
Kutubxona axborot faoliyati turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.05	O'z RT 20016	O'zbek (rus) tili	180	6	1
1.06	AT 20014	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	JMS20014	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.08	ADAB 20012	Adabiyot (O'zbek adabiyoti, Jaxon adabiyoti va Bollar adabiyoti)	360	12	1,2,3
1.09	KTK 20018	Kutubxonashunoslik	540	18	1,2,3,4
1.10	O'z XKIT 20014	O'zbekiston va xorijda kutubxonachilik ishi tarixi	120	4	5
1.11	KTDTT 20014	Kutubxonalarning dasturiy va texnik ta'minoti	120	4	4
1.12	KT 20018	Kitob tarixi	240	8	1,2
1.13	KAXNA 20012	Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti	360	12	5,6,7
1.14	KK 200112	Kataloglashtirish va klasifikatsiyalash	360	12	4,5, 6
1.15	EKEK 20014	Elektron kutubxona va elektron katalog	120	4	7
1.16	HAT 20018	Hujjatshunoslik, axborot tahlili	240	8	6,7
1.17	KAFMHA 20014	Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy huquqiy asoslari	120	4	6
1.18	KTINF 20014	Kutubxonalarning innovatsion faoliyati	120	4	7
1.19	BIB 200112	Bibliografiyashunoslik	360	12	2,3,4
1.20	SAR 20014	Sohaviy axborot resurslari	120	4	7
1.21	KAFM 20018	Kutubxona-axborot faoliyati menejmenti	240	8	5,6
1.22	KAFM 20018	Kutubxona-axborot faoliyati marketingi	240	8	6,7

1.23	KP 20018	Kutubxona pedagogikasi	240	8	3,4
1.24	KP 20014	Kitobxon psixologiyasi	120	4	5
1.25	MMMS 20018	Mutolaa madaniyati va media savodxonlik	240	8	3,4
1.26	KMM 20014	Kutubxonalarda muloqot madaniyati	120	4	5
		Jami	4800	160	
Kvalifikatsiya Kutubxonachi bibliograf					
Axborot kutubxona texnologiyalari faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.05	HIS1112	Hisob(Calculus) 1,2	360	12	1,2
1.06	FIZ1110	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.07	DIT1406	Differensial tenglamalar	180	6	4
1.08	CHA1306	Chiziqli algebra	180	6	3
1.09	DAS1110	Dasturlash 1,2	300	10	1,2
1.10	AKY1104	Akademik yozuv	120	4	1
1.11	MAB1306	Ma'lumotlar bazasi	180	6	3
1.12	KIA1406	Kiberxavfsizlik asoslari	180	6	4
1.13	MTA1204	Ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlar	120	4	2
1.14	EVS1306	Elektronika va sxemalar 1	180	6	3
1.15	DIT1306	Diskret tuzilmalar	180	6	3
1.16	KOT1306	Kompyuter tarmoqlari	180	6	3
1.17	SIA1406	Sun'iy intellekt asoslari	180	6	4
1.18	EVS1406	Ehtimollik va statistika	180	6	4
1.19	INL1704	Individual loyiha	120	4	7
1.20	Ksh1506	Kutubxonashunoslik	180	6	5
1.21	MNA1606	Metama'lumotlar nazariyada va amaliyotda	180	6	6
1.22	KYa1606	Kolleksiyalarni yaratish	180	6	6
1.23	AKB1706	Avtomatlashtirilgan kutubxonani boshqarish	120	4	7
1.24	BIBL1706	Bibliografiya	180	6	5
1.25	MK1506	Maktab kutubxonalari	180	6	5
1.26	RAX1606	Raqamli axborot xizmati	180	6	6

1.27	KtK11506	Kataloglashtirish va klasifikatsiyalash	180	6	5
1.28	AQT1506	Axborot qidiruv tizimlari	180	6	5
1.29	AAMX1704	Axborotlarning analitik mahsuloti va xizmati	180	6	6
1.30	AKsTU1706	Axborot-kutubxona sohasida tadqiqot usullari	120	4	7
* Mazkur ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tanlov fanlari o'qismiga "O'zbek (rus) tili" fani majburiy tarzda kiritiladi.					
Jami			4800	160	
Kvalifikatsiya Kutubxonachi (Axborot-kutubxona texnologiyalari bo'yicha mutaxassis)					
2.00		Tanlov fanlar	900	30	3-7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	<i>900</i>	<i>30</i>	<i>3-7</i>
		Jami			
		Malakaviy amaliyot*	900	30	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	1800	60	
		Hammasi	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, yengil sanoat mahsulotlari, yengil sanoat texnologiyasi, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari


ISHLAB CHIQLIGAN:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Rektor N.B.Sayfullayev
2024-yil " _____ " _____

M.O'.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Rektor B.Sh.Maxkamov
2024-yil " _____ " _____



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor M.R.Boltaboyev
2024-yil " _____ " _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi
Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limi

Bo'lim boshlig'i O.R.Salixov
2024-yil " _____ " _____

M.O'.

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Rektor Sherzodxon Qudratxo'ja
2024-yil " _____ " _____

M.O'.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
Direktor U.A.Teshabayeva
2024-yil " _____ " _____

M.O'.

Respublika bolalar kutubxonasi

Direktor A.F.Xadjayev
2024-yil " _____ " _____

M.O'.